

SHAXSIY KOMPETENTLIK TUSHUNCHASI VA UNING PEDAGOGIK  
AHAMIYATI*Maxamadinova Ulug'oy Abduqodir qizi**Termiz davlat pedagogika instituti, magistr.**Muxtarova Lobar Abdimannabovna**Termiz davlat pedagogika instituti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada shaxsiy kompetentlik tushunchasi va uning zamonaviy pedagogik jarayondagi o'rnini yoritib berilgan. Tadqiqotda kompetensiyaviy yondashuv asosida shaxsiy kompetentlikni rivojlantirish usullari va vositalari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** shaxsiy kompetentlik, pedagogik jarayon, kompetensiyaviy yondashuv, o'quvchi shaxsi, mustaqil fikrlash.

ПОНЯТИЕ ЛИЧНОСТНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ И ЕЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ  
ЗНАЧЕНИЕ

**Аннотация:** В данной статье рассматривается понятие личностной компетентности и ее роль в современном педагогическом процессе. В исследовании анализируются методы и инструменты развития личностной компетентности на основе компетентностного подхода.

**Ключевые слова:** личностная компетентность, педагогический процесс, компетентностный подход, личность студента, самостоятельное мышление.

THE CONCEPT OF PERSONAL COMPETENCE AND ITS PEDAGOGICAL  
SIGNIFICANCE

**Abstract:** This article discusses the concept of personal competence and its role in the modern pedagogical process. Personal competence is considered as a set of student's abilities to self-awareness, independent thinking, self-management and adaptation to the social environment.

**Keywords:** personal competence, pedagogical process, competency-based approach, student personality, independent thinking.

**Kirish.** Bugungi kunda ta'lim tizimida shaxsning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash ustuvor vazifa sifatida belgilanmoqda. Bu jarayonda shaxsiy kompetentlik tushunchasining o'rnini alohida e'tiborga loyiq. Shaxsiy kompetentlik insonning o'zini anglash, o'z-o'zini boshqarish, mas'uliyat, mustaqil fikrlash, ijtimoiy muhitda to'g'ri munosabatlarni shakllantirish kabi ko'nikma va qobiliyatlarni qamrab oladi. Pedagogik jarayonda ushbu kompetensiyani shakllantirish nafaqat bilim berishga, balki tarbiyaviy maqsadlarga ham xizmat qiladi. Kompetentlik — bu shaxsning ma'lum bir sohada muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, tajriba va shaxsiy sifatning uyg'unligidir.

Ta'lim sohasida kompetentlik – o'quvchining olgan bilimini real hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatidir. U nafaqat ma'lumotga ega bo'lishni, balki u orqali faoliyat yuritishni ham anglatadi. Bu yondashuv kompetensiyaviy yondashuv deb ataladi va zamonaviy ta'limda asosiy tamoyil hisoblanadi. Shaxsiy kompetentlik — bu insonning o'zini anglash, o'z-o'zini boshqarish, his-tuyg'ularini nazorat qilish, mas'uliyatli qarorlar qabul qilish, muammolarni mustaqil hal etish va ijtimoiy muhitda moslashish qobiliyatidir. Asosiy jihatlari quyidagilar:

1. O'zini anglash – o'z kuchli va zaif tomonlarini bilish, o'ziga nisbatan tanqidiy qaray olish;

2. O‘z-o‘zini boshqarish – his-tuyg‘ular va xatti-harakatlarni ongli boshqarish;3. Motivatsiya – ichki rag‘bat asosida harakat qilish va maqsadlarga intilish;
4. Mas‘uliyat – qarorlar va xatti-harakatlar uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga olish;
5. Mustaqil fikrlash – holatlarga ijodiy va tahliliy yondashish;
6. Emotsional barqarorlik – stressga bardosh berish va ijobiy ijtimoiy munosabatlar o‘rnatish.

Shaxsiy kompetentlik o‘quvchining nafaqat bilim olish, balki hayotiy vaziyatlarda to‘g‘ri yo‘l tutish, muammolarni hal qilish, ijtimoiy faol bo‘lishi uchun zarur asosiy ko‘nikmalarni ifodalaydi. Bu kompetentlik o‘quvchining mustaqil va mas‘uliyatli shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

**Tahlil va natija.** Pedagogik amaliyotda shaxsiy kompetentlikni shakllantirish o‘quvchilarning nafaqat bilim darajasini, balki psixologik va axloqiy rivojlanishini ham ta‘minlaydi. Shaxsiy kompetentlikning yuqori darajasi o‘quvchilarga hayotda mustaqil qaror qabul qilish, kasb tanlash, stressga qarshi turish kabi muhim kompetensiyalarni egallash imkonini beradi. John Raven (Buyuk Britaniya) Kompetentlik va inson salohiyatini aniqlash bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan. Uning fikricha, kompetentlik shaxsning muayyan vaziyatda to‘g‘ri va samarali harakat qilish qobiliyatidir. Philippe Perrenoud (Shveysariya).

Pedagogik kompetensiyalar va ularni shakllantirish metodologiyasi bo‘yicha ishlari mashhur. O‘qituvchida shaxsiy va professional kompetensiyalar uyg‘un bo‘lishi lozimligini ta‘kidlaydi. Howard Gardner (AQSh). Ko‘p intellekt nazariyasi asoschisi. U insonning shaxsiy va emotsional kompetensiyalarini "intrapersonal" va "interpersonal" intellekt doirasida tushuntirgan. Ta‘lim jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar orqali bu kompetentlikni samarali rivojlantirish mumkin. Shaxsiy kompetentlikning pedagogik ahamiyati ta‘lim jarayonida o‘quvchining nafaqat bilimga ega bo‘lishi, balki shaxs sifatida shakllanishi va real hayotda muvaffaqiyatli faoliyat yurita olishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Kompetentlikning asosiy tarkibiy qismlari:

1. Bilim – nazariy tushunchalar, faktlar, qoidalar;
2. Ko‘nikma – o‘rgangan bilimlarni amalda qo‘llay olish qobiliyati;
3. Tajriba – o‘rganilgan bilim va ko‘nikmalar asosida to‘plangan amaliy faoliyat natijalari;
4. Motivatsiya va qadriyatlar – faoliyatga bo‘lgan ichki munosabat va axloqiy yondashuv;
5. Shaxsiy sifatlar – mas‘uliyatlilik, mustaqillik, ijtimoiylik, moslashuvchanlik.

Quyida bu kompetentlikning asosiy pedagogik ahamiyati yoritiladi:

1. Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘limni ta‘minlaydi. Shaxsiy kompetentlik o‘quvchining individual xususiyatlariga e‘tibor qaratishni talab qiladi. Bu esa ta‘lim jarayonini insonparvar va motivasiyalangan qiladi.
2. O‘quvchining mustaqilligini rivojlantiradi. Bu kompetensiya orqali o‘quvchi, mustaqil fikr yurita oladi; o‘z-o‘zini baholaydi; o‘z ta‘limiga mas‘uliyat bilan yondashadi.
3. Hayotga tayyorlaydi. Shaxsiy kompetentlik, stressni yengish, to‘g‘ri qaror qabul qilish, o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish, ijtimoiy muhitga moslashish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bu ko‘nikmalar esa o‘quvchini nafaqat akademik, balki hayotiy muvaffaqiyatga ham tayyorlaydi.
4. Tarbiya va rivojlanishga xizmat qiladi. Pedagogik jarayonda shaxsiy kompetentlikni rivojlantirish orqali: o‘quvchining axloqiy qadriyatlari shakllanadi; o‘ziga va boshqalarga hurmat hissi ortadi; ichki intizom va mas‘uliyat rivojlanadi.
5. Zamonaviy ta‘lim talablariga javob beradi. Bugungi ta‘lim konsepsiyalari (masalan, kompetensiyaviy yondashuv, umrbod ta‘lim) doirasida shaxsiy kompetentlik asosiy yo‘nalishlardan biridir.

**Xulosa.** Shaxsiy kompetentlikning pedagogik ahamiyati shundaki, u ta'limni insonparvarlashtirishga, shaxsni har tomonlama rivojlantirishga va o'quvchini mustaqil, mas'uliyatli, ijtimoiy faol fuqaro sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Shaxsiy kompetentlikni shakllantirish — zamonaviy ta'limning asosiy strategik maqsadlaridan biridir. U o'quvchilarni nafaqat bilim bilan, balki hayotiy ko'nikmalar bilan qurollantiradi. Shunday ekan, pedagoglar ta'lim jarayonida bu kompetensiyani rivojlantiruvchi metod va vositalarni samarali qo'llashlari zarur.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Madaliyeva Sh. "Shaxsiy kompetentlikni shakllantirishning nazariy asoslari" nomli maqolasi, 2023 yil.
2. Albert Bandura – "Self-Efficacy: The Exercise of Control" (1997).
3. Ismoilov I.M., Jo'rayev M. (2019). Ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuv. – Toshkent: O'qituvchi.
4. Rasulova Z.D. (2021). O'quvchilar kompetensiyalarini rivojlantirishda integratsiyalashgan yondashuv.
5. John Raven (1997). Competence in Modern Society: Its Identification, Development and Release. – London: H.K. Lewis.
6. Мухтарова, Л. А. (2017). BOSHLANG'ICH TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING O'RNI. In НАУЧНЫЙ ПОИСК В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ (pp. 119-120).
7. Мухтарова, Л. А. (2018). Развитие творческого мышления у школьников начальных классов. *Гуманитарный трактат*, (24), 9-10.
8. Мухтарова, Л. А. (2018). Развитие И Формирования Критического Мышления У Школьников Начальных Классов. *Гуманитарный трактат*, (24), 13-14.
9. Kulmuminov, U., & Mukhtarova, L. (2023). POSSIBILITIES OF CREATIVE THINKING AND ITS MANIFESTATION IN THE EDUCATIONAL PROCESS. Open Access Repository, 4(02), 81-84.
10. Mukhtarova Lobar Abdimannabovna, & Saidakhmatova Nafisa Soatmurod kizi. (2023). DEVELOPMENT OF READING UNDERSTANDING SKILLS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS. Academia Science Repository, 4(04), 18–22.
11. Nafisa Saidakhmatova, & Lobar Mukhtarova. (2023). THE SIGNIFICANCE OF A ARTWORK IN THE FORMATION OF LEARNING SKILLS. Academia Science Repository, 4(04), 176–180.
12. Pardayeva Gulbahor Jalgashevna, & Mukhtarova Lobar Abdimannabovna. (2023). PEDAGOGICAL POSSIBILITIES OF TEACHING NATURAL SCIENCES BASED ON STEAM TECHNOLOGY. World Bulletin of Social Sciences, 21, 109-111.
13. Feruza RAKHMONOVA, & Lobar MUKHTAROVA. (2023). THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF FORMING A CULTURE OF READING IN PRIMARY EDUCATION. European Scholar Journal, 4(3), 5-7.
14. Мухтарова, Л. А. (2017). BOSHLANG'ICH SINFLARDA RIVOJLANTIRUVCHI TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI. *Апробация*, (2), 93-94.
15. Qulmuminov, O. R., & Suyundikova, M. (2025). ONA TILI DARSLARI ORQALI O'QUVCHILARNING KREATIVLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH YO

‘LLARI. *PROBLEMS AND SOLUTIONS OF SCIENTIFIC AND INNOVATIVE RESEARCH*, 2(1), 15-20.

16. Safar o'g'li, Q. O. R. MODELLASHTIRISH ONA TILI O'QITISH TIZIMIDA YANGICHA YONDASHUV.

17. Kulmuminov, U. (2023). CREATIVE TEACHING IN THE DEVELOPMENT OF CREATIVE EDUCATION. *Open Access Repository*, 4(2), 434-437.

19. KULMOMINOV, O. (2023). ISSUES OF DEVELOPMENT OF STUDENT'S CREATIVE SKILLS IN WORLD SCIENCE. *World Bulletin of Social Sciences*, 27,54-56.

20. Kulmominov, O. (2023). TECHNOLOGY FOR DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING SKILLS OF PRIMARY CLASS STUDENTS IN NATURAL SCIENCE TEACHING. *Open Access Repository*, 9(10), 112-116.

21. Kulmominov, O., & Ibragimova, F. (2024). DEVELOPMENT OF CREATIVE ABILITY OF STUDENTS IN PRIMARY EDUCATION AS A PEDAGOGICAL PROBLEM. *World Bulletin of Social Sciences*, 34, 66-69.

22. Kulmominov, O. (2024). Creative Thinking Of Students In Primary Education And Methods Of Its Display In The Educational Process. *Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments*, 2(5), 283-289.

23. Hilola, N. (2024). BOSHLANG 'ICH SINFI O 'QUVCHILARIGA SUV TEJASH VA ULARNI ISROF QILMASLIKKA OID BILIMLARNI O'RGATISH. *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH*, 7(5), 170-173.

24. Safar o'g'li, K. U. (2024). PEDAGOGICAL FOUNDATIONS FOR THE DEVELOPMENT OF CREATIVE SKILLS IN WORLD SCIENCE. *International journal of artificial intelligence*, 4(10), 10-13.

25. Safar o'g'li, K. U. (2024). FEATURES OF THE PROCESS OF DEVELOPING CREATIVE ABILITIES IN NATIVE LANGUAGE LESSONS. *International journal of artificial intelligence*, 4(10), 6-9.

26. Qulmo'minov O'rolboy, & Suyundikova Muslima. (2025). BOSHLANG'ICH SINFLARDA TABIIY FANLARNI MEDIA TA'LIM VOSITALARI ASOSIDA O'QITISH METODIKASI. ZAMONAVIY DUNYODA FANNING O'RNI VA AHAMIYATI BO'YICHA KONFERENSIYA, 2(1), 11–16.

27. Qulmuminov, O. R., & Suyundikova, M. (2025). STEAM FANLARI VA ULARNING ZAMONAVIY TA'LIMDAGI AHAMIYATI. *PROBLEMS AND SOLUTIONS OF SCIENTIFIC AND INNOVATIVE RESEARCH*, 2(1), 8-14.